



UDK: 801.8

Zebo XUDOYBERDIYEVA,
Oriental universiteti magistranti
E-mail: xzebo585@gmail.com

Oriental universiteti dotsenti M.Boboyeva taqrizi asosida

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA AYOLLAR BILAN BOG‘LIQ GENDERGA YO‘NALTIRILGAN IBORALAR
TAHLILI**
Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tili va o‘zbek xalqi madaniyatida ayol obrazining shakllanishi, rivoji va semantik xususiyatlari lingvokulturologik, antropologik hamda ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida keng tahlil qilinadi. Ayol obrazi o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, diniy e‘tiqodlari, ma‘naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini va an‘anaviy ijtimoiy institutlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Maqolada ayolga doir tasavvurlar til tizimida barqaror, stereotiplashgan, ammo mazmun jihatidan nihoyatda boy va ko‘p qatlamli lisoniy birliklar orqali aks etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, ayol obrazi, lingvokulturologiya, frazeologiya, gender stereotiplari, milliy mentalitet, o‘zbek madaniyati, xalq og‘zaki ijodi.

**ГЕНДЕРНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ВЫРАЖЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ОБРАЗОМ ЖЕНЩИНЫ, В
АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация

В данной статье широко анализируются формирование, развитие и семантические особенности образа женщины в узбекском языке и узбекской культуре на основе лингвокультурологического, антропологического и социокультурного подходов. Образ женщины интерпретируется в неразрывной связи с многовековым историческим опытом узбекского народа, его религиозными верованиями, духовными ценностями, обычаями, традициями и традиционными социальными институтами. В статье обосновывается, что представления о женщине находят отражение в языковой системе через устойчивые, стереотипизированные, но в содержательном плане исключительно богатые и многослойные языковые единицы.

Ключевые слова: Узбекский язык, образ женщины, лингвокультурология, фразеология, гендерные стереотипы, национальный менталитет, узбекская культура, устное народное творчество.

ANALYSIS OF GENDER-ORIENTED EXPRESSIONS RELATED TO WOMEN IN ENGLISH AND UZBEK
Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the formation, development, and semantic characteristics of the image of women in the Uzbek language and Uzbek culture based on linguocultural, anthropological, and socio-cultural approaches. The image of women is interpreted in close connection with the centuries-old historical experience of the Uzbek people, their religious beliefs, moral values, customs, traditions, and traditional social institutions. The article substantiates that perceptions of women are reflected in the language system through stable, stereotyped, yet semantically rich and multilayered linguistic units. These units reveal the national worldview and cultural mentality embedded in the linguistic consciousness of Uzbek speakers.

Key words: Uzbek language, image of women, linguoculturology, phraseology, gender stereotypes, national mentality, Uzbek culture, folklore.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida til va jamiyatning o‘zaro ta‘siri, shuningdek, gender omilining til tizimidagi aks etishi lingvistik fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Til – jamiyatning ijtimoiy-madaniy tajribasini aks ettiruvchi asosiy vosita bo‘lib, unda genderga oid qarashlar, qadriyatlar, stereotiplar va mental tasavvurlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ayol obrazining til birliklari, frazeologizmlar va tayyor iboralar orqali ifodalanishi xalqning urf-odatlarini, ma‘naviy-madaniy qarashlari hamda dunyoqarashidan darak beradi. Shu sababli ayollar bilan bog‘liq iboralarning semantik, stilistik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki gender sotsiologiyasi, antropologiya va tarjimonlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ayollar obraziga doir iboralar o‘zining milliy xususiyatlari, madaniy ramzlari va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi. Ingliz tilida ayol obrazini tasvirlovchi ko‘plab iboralar zamonaviy gender rollari, postindustrial jamiyatning qadriyatlarini bilan bog‘liq bo‘lsa,

o‘zbek tilidagi iboralar ko‘proq an‘anaviy oila, jamiyat va ma‘naviyat tushunchalari bilan uyg‘unlashgan. Shu nuqtayi nazardan, ikki til tizimidagi bunday iboralarni qiyosiy tahlil qilish madaniy tafovutlarni ochib berish, milliy mentalitetni chuqurroq anglash va gender stereotiplarining lingvistik ko‘rinishlarini aniqlash imkonini beradi.

Gender lingvistikasi nazariyasining poydevori amerikalik olim Robin Lakoffning 1975 yili chop etilgan “Language and Woman’s Place” asari bilan bog‘liq. Lakoff ayollar nutqini jamiyatdagi tengsizlikning lisoniy aks-sadosi sifatida talqin qilgan ekan, ayollar tili muloyimlik, ehtiyotkorlik, gumon bildiruvchi vositalarga ko‘proq murojaat qilish, takliflarni yumshoq shaklda ifodalash kabi lisoniy xususiyatlar bilan tavsiflanishini ta‘kidlagi. Uning fikricha, ayollar nutqidagi bu belgilar tabiiy-biologik emas, balki ayollarning jamiyatdagi mavqei, oiladagi roli, tarbiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan sotsial mexanizmlar natijasidir. Lakoff tilning genderga oid stereotiplarni shakllantirish va mustahkamlashdagi o‘rnini ochib bergan birinchi

tadqiqotchilardan biri bo'ldi. Keyinchalik Lakoff g'oyalari davom ettirgan Deborah Kameron, Janet Holmes, Deborah Tannen, Sara Mills kabi olimlar til va gender o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yanada chuqurroq yoritdilar.

O'zbek tili va o'zbek xalqi madaniyatida ayol obrazi ko'p asrlik tarixiy, diniy, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan murakkab, ko'p qatlamli tasvirdir. O'zbek xalqining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, an'analari, urf-odatlar va ijtimoiy institutlari ayolga doir tasavvurlarning yuzaga kelishida asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ayol obrazi til tizimida ham, xalq og'zaki ijodi, maqol-matal, qo'shiqlar, ertaklar, marosim terminologiyasi va frazeologiyada o'ta barqaror, stereotiplashgan, ammo shu bilan birga, mazmun jihatidan nihoyatda boy tarzda aks etgan.

O'zbek tilidagi ayollar obraziga oid iboralarning shakllanishi avvalo xalqning oilaviy-huquqiy an'analari, erkak va ayolning jamiyatdagi rollari, sharqona ma'naviyat tamoyillari bilan bog'liq. O'zbek jamiyati tarixan patriarxal tuzilishga ega bo'lganligi sababli ayolning ijtimoiy mavqei ko'p hollarda oila instituti doirasida belgilangan. Shuning uchun ayol obrazi ko'pincha ona, turmush o'rtog'i, uy bekasi, farzand tarbiyalovchi, uy-joyning qut-barakasi kabi rollarda tasvirlangan. Bu qadimiy ijtimoiy arxetiplar til tizimiga o'zining o'chmas izini qoldirgan.

O'zbek tilidagi ijobiy konnotatsiyaga ega ayollarga oid iboralar aksariyat hollarda ayolning mehribonligi, halolligi, pokligi, sabri, oila mustahkamligidagi o'rni, uy bekasi sifatidagi mas'uliyati kabi xususiyatlar bilan bog'lanadi. Masalan, "uy qutisi" iborasi ayolning oila va uy xo'jaligi hayotidagi markaziy o'rnini, baraka va fayz manbai sifatidagi rolini bildiradi. Bu ibora nafaqat semantik, balki mental jihatdan ham o'zbek madaniyatidagi ayol konseptining muhim qatlami hisoblanadi. Shunga o'xshash "oqila ayol", "halima ayol", "mehribon ona", "munis qiz", "nazokatli kelin" kabi iboralar ayolning nafosat, ibo-hayo, odob, mehr kabi fazilatlarini ifodalaydi.

O'zbek tilidagi ayollarga oid iboralar ko'p hollarda diniy qadriyatlar bilan ham bog'liq. Islomda ayolning onalik maqomi nihoyatda ulug' deb sanaladi. "Jannat onalar oyog'i ostidadir" degan hadis asosida ayolning ona sifatidagi timsoli o'zbek xalq og'zaki ijodida, frazeologiyada va maqollarda keng aks etgan. Masalan: "Ona do'stdan aziz", "Onaning duosi tog'ni ko'chiradi", "Ona – muqaddas zot" kabi birliklar o'zbek tilining ma'naviy qatlamini tashkil qiladi. Bu iboralarda ayolning onalik roli nafaqat biologik, balki ma'naviy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan yuksak qadrlanadi.

O'zbek madaniyatida ayolning go'zalligi ham lisoniy obraz yaratishda katta o'rin tutadi. "Guldek qiz", "oydek kelin", "quyoshdek yor" kabi poetik iboralar ayolning tashqi go'zalligini ramziy tasvirlaydi. Sharq adabiyotida ayol go'zalligi doimo tabiat unsurlari gul, oy, quyosh, yulduz, shamol, bahor bilan qiyoslangan. Bu metaforalar o'zbek frazeologiyasining milliy poetik tafakkur bilan uyg'unligini ko'rsatadi. Ayolning shirin tabassumi, muloyim hulqi, nozik fe'l-atvori o'zbek badiiy tasvirida doimo maqtovg'a loyiq fazilatlar sifatida talqin qilinadi.

O'zbek tilida ayol obrazini aks ettiruvchi iboralarning salbiy qatlamini ham inkor etib bo'lmaydi. Chunki har qanday madaniyatda bo'lgani kabi, o'zbek jamiyatida ham ayolning ayrim xulq-atvoriga nisbatan tanqidiy qarashlar mavjud va ular lingvistik birliklarda aks etgan. Masalan, "g'iybatchi xotin", "xarxasha ayol", "bachkana kelin", "bekorch kampir", "qo'li tegmagan ayol" kabi iboralar ayolning salbiy yoki ijtimoiy jihatdan noo'rin xulqini ifodalashda qo'llanadi. Bu iboralar madaniyatda ayolga qo'yilgan ijtimoiy meyorlarni anglashga yordam beradi. Masalan, "xarxasha" iborasida ayol o'ta hissiy, rashkchi, janjalkash sifatida tasvirlanadi bu ingliz tilidagi "nagging woman" yoki "drama queen" iboralari semantik jihatdan yaqin.

Frazeologiya antropologik jihatdan qaraganda, ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan gender stereotiplarning barqaror lisoniy shaklidir. Ayolning yetishmovchiligi bilan bog'liq iboralar ham bu tizimda muhim o'rin tutadi. Masalan, "qiz bola nozik bo'ladi", "ayol kishi sabrli bo'ladi", "kelinning boshi past", "ayolning yo'li ingichka" kabi iboralar ayolning ijtimoiy kamtar, itoatkor, muloyim bo'lishi kerakligi haqidagi mental stereotiplarni ifodalaydi. Bu iboralar ayolning jamiyatdagi an'anaviy roli va unga nisbatan kutishlarni aks ettiradi.

O'zbek frazeologiyasidagi ayol obrazining yana bir muhim qatlami — estetik va axloqiy qadriyatlarining sintezi. Ayol faqat tashqi go'zallik emas, balki ichki latofat, sabr, ibo, odob kabi fazilatlar bilan tavsiflanadi. Shuning uchun "ibo-hayoli bor qiz", "muloyim kelin", "etigiga tuproq yo'l bo'lsin", "ko'ngli oppoq ayol" kabi birliklar aynan ichki fazilatlarini ifodalaydi. Bu iboralarning semantik tuzilishida milliy axloqiy mezonlar markaziy o'rin oladi.

O'zbek tilida metafora ayol obrazini yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayollar ko'pincha tabiiy elementlar, nozik jismlar, yumshoqlik va estetik timsollar orqali tasvirlanadi. Masalan, ayolni gulga qiyoslash orqali uning go'zalligi, yoshligi, nozikligi ta'kidlanadi; ipak, nafis buyumlar bilan qiyoslash uning zarifligini bildiradi; "uy qutisi" modeli esa ayolni himoya, baraka, tinchlik timsoli sifatida talqin qiladi. Bu metaforik modellar o'zbek xalqining qadriyatlar tizimida ayolning qanchalik yuksak o'ringa ega ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zbek tilida ayollar bilan bog'liq idiomatik iboralar ko'pincha ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni tavsiflaydi. Masalan, "kelin salom", "qaynona-kelin munosabati", "qiz uzatish", "kelin tushirish", "qiz bola er yettinch" kabi iboralar o'zbek madaniyatida ayolning hayotiy bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan marosim, rasm-rusumlar va ijtimoiy institutlarning leksik ifodasidir. Bu birliklar nafaqat tildagi majoziy ma'noni, balki milliy hayot tarzining til tizimida aks etgan ko'rinishini ham ifodalaydi.

Ayol obrazining shakllanishi o'zbek xalq og'zaki ijodida ham keng o'rin tutadi. Ertaklarda ayol bir vaqtning o'zida mehribon ona, aqlli qiz, dono ayol yoki yovuz kampir sifatida tasvirlanishi mumkin. Bunday dualizmlar til tizimidagi metafora va frazeologizmlarga ham ko'chgan. Masalan, "dono ayol" iborasi "aqlli, ko'pni ko'rgan ayol"ni bildirsa, "tili zahar ayol" iborasi salbiy xulq-atvorni aks ettiradi.

O'zbek tilidagi ayol obrazining semantik tizimida eng qadimiy konseptlardan biri onalik konsepti hisoblanadi. Ona qadimdan muqaddaslashtirilgan obraz bo'lib, bu tasvir tildagi iboralarda ham kuchli namoyon bo'lgan. "Ona yurti", "ona til", "ona yurt", "ona mehr" kabi birliklarda "ona" konsepti himoya, qudrat, bag'rikenglik, vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan birgalikda qo'llanadi. Bu esa ayol obrazining o'zbek madaniyatidagi buyuk semantik salohiyatini ko'rsatadi.

Ayol obraziga doir o'zbekcha iboralarning lingvokulturologik qatlami o'zbek xalqining qadriyatlar tizimini ochib beruvchi asosiy sahifalardan biridir. Bu iboralar orqali ayolning nafaqat ijtimoiy roli, balki ma'naviy dunyosi, ruhiy fazilatlar, ijtimoiy kutishlar, gender stereotiplari, tarixiy an'analari ham ifodalanadi. Shu sababli o'zbek frazeologiyasidagi ayol obrazini o'rganish milliy madaniyatning ijtimoiy-ruhiy mohiyatini tushunishga yordam beradi. Zamonaviy o'zbek tilida ayol obrazining o'zgarishi ham kuzatiladi. Globalizatsiya, modernizatsiya, ayollarning ijtimoiy faolligining ortishi natijasida yangi lisoniy birliklar paydo bo'lmoqda. Masalan, "ixtirochi ayol", "lider ayol", "ilmiy xodim ayol", "tadbirkor ayol" kabi iboralar ayollarning jamiyatdagi yangi rollarini aks ettiradi. Bu birliklar tilning dinamik tabiatini, madaniyatning o'zgaruvchanligini va ayol obrazining zamonaviy talqinga ega bo'layotganini ko'rsatadi.

Ayni paytda, ayrim iboralar qadimiy stereotiplarning saqlanib qolganini ham bildiradi. Masalan, “ayolning boshi past bo‘ladi”, “ayolning yo‘li ingichka” kabi iboralar ayolning jamiyatdagi subordinatsiya toifasiga mansubligini aks ettiruvchi arxaik tasavvurlarni o‘zida saqlagan.

Xulosa. O‘zbek tilidagi ayol obrazini aks ettiruvchi iboralar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, diniy e‘tiqodlari, ijtimoiy tuzilishi va ma‘naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan murakkab

lingvokulturologik tizimni tashkil etadi. Ayol obrazi til birliklarida nafaqat biologik yoki ijtimoiy shaxs sifatida, balki ona, oila tayanchi, baraka va fayz manbai, axloqiy komillik hamda estetik go‘zallik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat o‘zbek xalqining qadriyatlar tizimida ayolga berilgan yuksak ma‘naviy bahoni yaqqol ko‘rsatadi. Maqola ayol go‘zalligining metaforik talqini, estetik va axloqiy qadriyatlarining bir butun holda ifodalanishi o‘zbek milliy tafakkurining poetik va ramziy xususiyatlarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Qodirova, M. (2020). Gender va til: O‘zbek adabiy tilida jinsga oid birliklar. Toshkent: O‘zMU nashriyoti. (2020; 67-70) mqodirova@uzmu.uz
2. Karimov, B. (2019). O‘zbek ayol obrazining adabiy portreti. Adabiyot va san‘at jurnali, №2, 45–49. (2019; 45-49) bkarimov@mail.uz
3. Holmes, J. (2018). An Introduction to Sociolinguistics. Routledge. (2018; 113–119) janet.holmes@vuw.ac.nz
4. Wodak, R. (2017). Gender and Discourse. SAGE Publications. (2017; 88–92) r.wodak@lancaster.ac.uk
5. Rahmatova, Z. (2021). Til va gender: lingvistik yondashuvlar. Filologiya ilmiy-amaliy jurnali, №3, 50–55. (2021; 50–55) zrahmatova@philol.uz
6. Cameron, D. (2015). The Myth of Mars and Venus. Oxford University Press. (2015; 101–106) deborah.cameron@ling.ox.ac.uk
7. MURATKHODJAEVA, F. (2025). Inson ruhiyatini ifodalovchi meliorativ emotsiyalarning semantik ko‘lami. «АСТА NUUz», 1(1.2. 1), 280-281.
8. Xotamovna, M. F. (2024). Madaniy markerlangan lingvomadaniyatshunoslik leksikasi va ularning tarjima transformatsiyasi masalalari. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 3(30), 496-499.
9. Xotamovna, M. F. (2025). Inson ruhiyati fenomenologiyasi va uni ifoda etishning lisoniy vositalari. IMRAS, 8(5), 4-9.